

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM  
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARNING  
8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN KIMYO FANIDAN TEST  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI MAKTABLARINING 8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN KIMYO FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning kimyo fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

## **I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining kimyo fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktablarning 8-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.
2. Kimyo fanidan umumiy o‘rta ta’limning 7-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.

## **III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt**

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul qilish jarayonida o‘quvchilarning kimyo fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **20 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Test topshiriqlarini bajarish uchun **50 daqiqa** vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlaridan (Y3)*) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
<b>1. Kimyoning asosiy tushunchalari. Kimyoviy qonunlar (1-9-savollar)</b>		<b>9</b>
<b>1.1. Atomlarning tarkibi. Mol. Molekulaning molyar va molekulyar massasi. Izoarrachalar. Davriy sistema va davriy qonun. Ekzotermik va endotermik reaksiyalar. Issiqlik effekti.</b>	Atomlarning tarkibini bilish, atom va molekula tushunchasini tushunish, molekulaning molyar va molekulyar massasini hisoblashni qo'llash, izotop va izobar tushunchalarini bilish, davriy sistema va davriy qonun mazmunini tushunish, ekzotermik va endotermik reaksiyalarni ajratish, issiqlik effektini tushunish va berilgan reaksiyalar asosida natijalar haqida xulosa chiqarish.	5
<b>1.2. Tarkibning doimiylik qonuni. Kimyoviy formulalar tuzish. Massaning saqlanish qonuni. Reaksiya unumi. Karrali nisbatlar qonuni. Avogadro qonuni.</b>	Tarkibning doimiylik qonunini bilish va mazmunini tushunish, kimyoviy formulalarni tuzishni qo'llash, massaning saqlanish qonunini bilish va mazmunini tushunish, reaksiyada unumni hisoblashni qo'llash, karrali nisbatlar qonunini bilish va mazmunini tushunish, Avogadro qonunini bilish va mazmunini tushunish, berilgan shartlar asosida kimyoviy jarayon natijalari haqida xulosa chiqarish.	2
<b>1.3 . Gaz qonunlari. Izojarayonlar (Izobarik, Izoxorik, Izotermik). Mendelejev-Klayperon tenglamasi. Ekvivalentlar qonuni.</b>	Gaz qonunlarini bilish va mazmunini tushunish, izojarayonlar – izobarik, izoxorik va izotermik jarayonlarni bilish va tushunish, Mendelejev-Klayperon tenglamasini bilish va tushunish, ekvivalentlar qonunini bilish va tushunish, berilgan shartlar asosida gaz va kimyoviy jarayonlarni hisoblash va natijalar haqida xulosa chiqarish.	2
<b>2. Anorganik birikmalarning muhim sinflari (10-13-savollar)</b>		<b>4</b>
<b>2.1. Oksidlar. Asoslar</b>	Oksidlar va asoslar tushunchasini bilish va mazmunini tushunish, ularning formulalari va tuzilishini hisoblash va qo'llash, kimyoviy xossalari va reaksiyalari natijalarini asoslash va izohlash, berilgan shartlar asosida jarayonlarni tahlil qilish va natijalar orasidagi bog'liqlikni aniqlash.	2

<b>2.2. Kislotalar. Tuzlar</b>	Kislotalar va tuzlar tushunchasini bilish va mazmunini tushunish, ularning tarkibi va formulalarini aniqlash hamda hisoblashda qo'llash, kimyoviy xossalari va reaksiyalarini asoslash, berilgan shartlar asosida jarayonlarni tahlil qilish va natijalar orasidagi bog'liqlikni aniqlash.	2
<b>3. Kimyoviy bog'lanishlar (14-16-savollar)</b>		<b>3</b>
<b>3.1. Kimyoviy bog'lanish va uning turlari. <math>\sigma</math> va <math>\pi</math> bog'lar. Kovalent bog'lanish. Qutbli va qutbsiz kovalent bog'lar. Bog' energiyasi. Bog' uzunligi. Bog' karraliligi</b>	Kimyoviy bog'lanish va uning turlari tushunchasini bilish va mazmunini tushunish, $\sigma$ va $\pi$ bog'lar hamda kovalent bog'lanishning mohiyatini tushunish, qutbli va qutbsiz kovalent bog'larni farqlash va berilgan birikmalar uchun aniqlashda qo'llash, bog' energiyasi, bog' uzunligi va bog' karraliligi orasidagi bog'liqlikni asoslash, berilgan misollar asosida bog'lanish xususiyatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish.	2
<b>3.2. Ion bog'lanish. Metall bog'lanish. Vodorod bog'lanish. Donor-akseptor mexanizmi (Koordinatsion bog').</b>	Ion bog'lanish, metall bog'lanish, vodorod bog'lanish va donor-akseptor mexanizmi (koordinatsion bog') tushunchalarini bilish va mazmunini tushunish, bu bog'lanish turlarini moddalarda aniqlash va misollar orqali qo'llash, bog'lanish turi bilan moddaning fizik va kimyoviy xossalari orasidagi bog'liqlikni asoslash, berilgan vaziyatlar asosida bog'lanish xususiyatlarini tahlil qilish va xulosa chiqarish.	1
<b>4. Eritmalar. (17-20-savollar)</b>		<b>4</b>
<b>4.1. Eritmalar. Eritma turlari. Eritma konsentratsiyalari. Foiz konsentratsiya. Molyar. Normal konsentratsiya.</b>	Eritmalar va eritma turlari tushunchasini bilish va mazmunini tushunish, eritma konsentratsiyalarini ifodalash usullarini bilish, foiz, molyar va normal konsentratsiyalarni aniqlash va hisoblashda qo'llash, konsentratsiya o'zgarishining eritma xossalriga ta'sirini asoslash, berilgan shartlar asosida eritmalarga oid jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.	3
<b>4.2. Eruvchanlik.</b>	Eruvchanlik tushunchasini bilish va mazmunini tushunish, eruvchanlikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va	1

	qo'llash, berilgan sharoitda moddaning eruvchanligini asoslash, eruvchanlik grafigi va jadvali asosida jarayonni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish.	
--	--	--

#### IV. Kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar va baholash mezonlari bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Baholash mezonlari (ball)
<b>Bilish</b>	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalarni, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan	4	1.1
<b>Qo'llash</b>	Produktiv o'quv topshiriqlarining o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalar va formulalarni tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida sodda hisob-kitoblarni bajaradi, standart shakldagi masalalarni yechadi hamda formula yoki qoidani to'g'ridan to'g'ri qo'llaydi.	4	1.1
	Produktiv o'quv topshiriqlari o'quvchilardan o'rganilgan qoidalar va formulalarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman noodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar masala shartini tahlil qiladi, mos yechim usulini tanlaydi, bir nechta	6	2.1

	formulalar yoki qoidalarni ketma-ket va mantiqiy bog‘liqlikda qo‘llaydi hamda yechim jarayonida oraliq xulosalar chiqaradi.		
<b>Mulohaza qilish</b>	Intellectual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, va ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirishni talab qiladi	6	2.1

Test topshiriqlari umumiy **34 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

### **V. Imtixon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar**

1. I.R.Asqarov, K.G‘opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf kimyo «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022

2.I.R.Asqarov, K.G‘opirov, N.X.To‘xtaboyev 7-sinf kimyo «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2017